O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ - БД-60410100
2024-yil “10” 15

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024-yil “__”_____

«INSTITUTSIONAL IQTISODIYOT»

FAN DASTURI
Kunduzgi bo‘lim uchun

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410000 – Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	60410100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

SAMARQAND – 2024

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
INIQ1505	2026-2027	V	5

Fan/modul turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O‘zbek	6

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami: (soat)
	Institutsional iqtisodiyot	66	84	150

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o‘qitishdan maqsad** – bakalavrning hozirgi zamon talabiga javob beradigan institutlar faoliyati bilan tanishtirish. Jahon institutlarning hayotiy standartlaridagi ilg’or tajribalarni o’rganib, uni mamlakt ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatida keng qo’llash ko’nikmasini shakllantirish. **Fanning vazifasi** – “Institutsional iqtisodiyot” fani talabalarda institusional iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishining ham nazariy, ham amaliy tomonlarini, iqtisodiyot subyektlarning faoliyatini o’rganish usullari bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**“Institusional iqtisodiyot” faninign predmeti, mazmuni va tamoyillari** Jamiyatning bir ijtimoiy-iqtisodiy formaciyadan ikkinchi formaciyaga o`tish jarayoni tabiy bo`lib aholining turmush farovonligi oshib boradi. Urf-odat, an`analar asta-sekinlik bilan qonun kuchga kiritilib aholining yashash normalari qonunlashtirib boriladi. Qonunlashtirilgan bu jarayonlar keyinchalik o`z aksini institutlarda topadi. Ushbu fanning asosiy vazifasi shunday institutlarni iqtisodiyotini o`rganishdan iboratdir.

M2	**Institutsionalizm metodologiyasi** Neoinstitutsionalizm nazariyalari tobora ko`proq o`z aksini institusionalizmda topadi. Boshqa fanlardan farq qilib institutsionalizm metodologiyasi o`ziga hususiyatiga ega. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni aniq bir ko`rsatkichlar bilan ifodalab bo`lmasligi sababli u alohida yondashuvini talab etadi.
M3	**Institutlar va ularning jamiyat rivojlanishidagi roli** Jamiyat va aholining boyligi nafaqat uning ishlab chiqargan xajmi yoki tovarlar va xizmatlarni ist`emol miqdori bilan belgilaydi, balkim aholining ma`naviy boyligi, sog`lig`, uning huquqlari, burchlari kabilar ham bilan belgilanadi. Shuning uchun yashash standartlarni barpo etish va undan samarali foydalanish pirovard natijada aholining turmush farovonligini oshirishga olib keladi.
M4	**O'yinlar nazariyasi va o'zaro hamkorliklarni modellashtirish** Kishilar o`rtasidagi va ularning jamiyatdagi o`zaro nizolarini oldini olish maqsadida iqtisodiyotda optimal bir qarorga kelishi uchun nazariy jixatdan iqtisodiy-matematik usullardan foydalingan holda o`yinlar tajriba sifatida o`tkaziladi. Ijobiy natija bergan tag`dirdagina u jamiyatda omalashtiradi. O`yinlarda salbiy natija ham ijobiy baholanib u kelajakda xato qilmaslik uchun jamiyatda qo`llanilmaydi.
M5	**Reja va bozor institutlari** Reja iqtisodiyoti Sobiq Sotsionalistik jamiyatda qo`llanilgan bo`lib u o`z samarasini bermadi. Ma`muriy boshqaruv tizimiga asoslangan jamiyatda. Institutlar yetarli darajada o`z samarasini bermadi. Xozirgi zamon sharoitida faqatgina bozor munosobatlarga asoslangan iqtisodiyot samara beradi. Ayrim mamlkatlarda aralash iqtisodiyot ham o`z samarasini bermoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy yo`naltirilgan bozor munosobatlarini joriy etish yo`li tanlangan.
M6	**Transaktsiyalar va transaksion xarajatlarni** Institutsional iqtisodiyotning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib transaksiya bo'lib ushbu mazvuni talaba o'rganayotganda DJ.Kommonsning 3 ta tipdagi transaksiyasini o'rganib amaliyotga qo'llash imkoniyati bo'ladi. Transaksiya o'zining xususiyatiga ko'ra bir nechta guruhlarga bo'linadi. Ularni nazariy va amaliy jihatdan bilimga ega bo'lishi kelajakda korxona yoki firma samarali ishlashiga olib keladi.
M7	**Transaksiyalarni tahlil qilishga nisbatan yondashuvlar** Transaksiya xarajatlarini bir nechta belgilarga qarab tasniflashdan maqsad korxonaning samarali faoliyat yuritishi uchun muhim ahamiyatni kasb etadi. Iqtisodiy faoliyatdagi zarur bo'lgan bilimga ega bo'lishi korxona yoki firmaning moliyaviy barqaror ta'minlashga olib keladi.
M8	**Xufiyona iqtisodiyot** Yashirin iqtisodiyot jamiyat va davlatdan yashirilgan norasmiy iqtisodiy faoliyat bo'lib ma'lumki u davlat nazorati ostida bo'lmaydi. O'quv jarayonida talaba yashirin iqtisodiyot faoliyati bilan tanishib uni

	liberallashtirish jarayoniga qatnashsa davlat byudjetiga qo'shimcha tushumlarni ta'minlaydi. Yashirin iqtisodiyot qanchalik ko'p legallashtirilsa shunchalik davlat va aholining boyishiga olib keladi. Bu mavzudagi talabaning bilimga ega ega bo'lishi mamlakatdagi yashirin iqtisodiyotni o'rganib kelajakda unga qarshi kurash ko'nikmalarga ega bo'ladi.
M9	**Institutlarning daromad manbalari** Aholining turmush darajasini oshirish bilan bog'liq bo'lgan yaratilgan har qanday institut normal faoliyat ko'rsatish uchun ma'lum darajada daromad manbaiga ega bo'lish kerak. Tashkil topilgan institutlarning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalariga qarab bir nechta guruhlarga bo'linadi. Aksariyat hollarda tashkil etilgan institutlar aholining ixtiyoriy badali evaziga tashkil etiladi. Ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan institutlar esa daromadlari davlat byudjeti hisobidan shakllantiradi.
M10	**Institutsional xarajatlari.** Hayot standartlarini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan har qanday institutlar ma'lum jihatdan xarajatlarga bog'liq bo'ladi. Daromadlarning kelib chiqishidan qat'iy nazar institutlar bino, ishchi xizmatchilarning oylik maoshlari, transport xarajatlari kabi xarajatlardan iborat bo'ladi. Har bir institut oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalariga qarab xarajatlar amalga oshiriladi. Ushbu mavzuni o'rganishda talabaning vazifasi qilinayotgan xarajatlar maqsadli yoki maqsadsiz ekanligini bilishdir.
M11	**Institutsional foyda va renabellik** Tashkil etilgan institutlar odatda o'z oldiga foyda olish yoki rentabellik ishlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi. Institutlarning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalariga qarab ularning daromadlari ustavga muvofiq shakllantiriladi. Ular asosan institut a'zolari va jamiyat manfatini ko'zlagan holda sarf xarajatlar qiladi xolos.
M12	**Mulkchilik huquqlari nazariyasi va mulkchilik shakllari rivojlanishining evolyutsiyasi** Institutlar asosan bir nechta mulk formalariga asoslanib faoliyat yuritadi. Ushbu mavzuni talaba mulk huquqlari, huquqiy tizim: fuqorolik huquqi, umumiy huquq, mulkga egalik qilish huquqi kabilarni o'rganadi. Mulkdorni huquq va burchlarini talaba tomonidan o'rganishi kelajakda mulk munosabatlar o'rtasdagi nizolarni oldini olishga imkon beradi.
M13	**Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida institutsional islohotlar** Har bir mamlakat o'zining oldiga aholining turmush farovonligini oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi va bu yo'nalishda malakatning xususiyatidan kelib chiqib modernizatsiya qilish yo'lida institutsional islohotlar o'tkazib boradi. Talab ushbu mavzuni o'rganib borishda modernizatsiyalash jarayonini o'rganib kelajakda institutlar faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi.
M14	**Shartnomalar nazariyasi va firma nazariyasi Tashkilotni amaliy tahlil qilish nazariyasi** Jismoniy va yurudik shaxslar o'rtasidagi munosabatlar hsrtnomalar bilan belgilanadi. Shartnomada tomonlar o'zaro kelishuvga asoslanib imzolanadi.

	Tomonlarning huqu va majburiyatlarni, ular o'rtasidagi nizoni bartaraf etish yo'llari shartnomada o'z ifodasini topadi. Firma o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga qarab tashkil etiladi va davlat ro'yhatidan o'tkaziladi.
M15	**Firmaning tashkiliy - huquqiy shaklini tahlil qilish** Firma iqtisodiy faoliyat yurutish formulasiga ko'ra bir nechta guruhlarga bo'linadi. Individual firmalar agar yakka tartibda faoliyat ko'rsatsa jamoatchilik asosida tashkil etilgan korporatsiyalar hamkorlikda boshqariladi. Davlat korxonalari esa davlat tomonidan nazorat qilib kelinadi. Firma ichidagi boshqaruv tashkil etilgan bo'limlar tomonidan boshqariladi va nazorat qilinadi.
M16	**Zamonaviy institutsional muammolar** Har bir jamiyat rivojlanish jarayonida ma'lum darajada muammoga ega bo'lib uning bartaraf etish maqsadida har xil hamkorlik institutlari barpo etiladi. Bunday institutlar hozirgi kundagi mavjud bo'lgan mehnat, moliya, moddiy, tabiiy resurslardan aholining turmush farovonligi yo'lida samarli foydalanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.
M17	**Ijtimoiy-iqtisodiy mauammolarning institutsional yechimlari** Aholining ehtiyojini to'laroq qondirish maqsadida olib borilayotgan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ma'lum darajada muammolarga duch keladi. Shuning uchun mavjud bo'lgan va yangi ochilgan institutlar jamiyatning alohida ijtimoiy-iqtsodiy muammolarni hal etishga qaratilgan bo'lib bu institutlar oldiga yangi vazifalar qo'yib boradi.
M18	**Jahonning institutsional standartlari** Rivojlangan mamlakatlarda aholining tug'ulganidan boshlab to vafot etganigacha ma'lum darajada institutlar bilan ta'minlangan bo'lib ularning soni 3500 dan ziyod. O'zbekiston Respublikasi jahon hayot standartlaridan ortda qolib bugungi kunda institutsinal islohotlarni amalga oshirib kelmoqda.
M19	**Davlat institutsional tashkilot sifatida va davlatlar xillari** Davlat konsitutsiyaga muvofiq muhim institutlardan biri bo'lib u o'zining bayrog'i, madhiya, valyutasi poytaxti kabi xususiyatlariga ega bo'lib u xalq tomonidan muhokadan so'ng maqullanadi va qonun kuchga kiradi. Davlat boshqaruv va ijro organlari, fuqorolarning burjlari konstitutsiyada o'z aksini topgan. Davlat o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifaga qarab bir nechta turga bo'linadi.
M20	**O'zbekiston Respublikasinig iqtisodiy siyosatida institutsional islohotlar** O'zbekiston o'z mustaqilligini kiritgan so'ng dastlab yangi davlatni barpo etish bilan bog'liq bo'lgan islohotlarni amalga oshirgan bo'lsa oxirgi yillarda iqtisodiyotni jadal suratlar bilan rivijlantirish maqsadida jaxon hamkorlik tashkilotlari va moliyaviy institutlar bilan hamkorlik darajasini kuchaytirish bo'yicha institutsional islohotlar olib bormoqda.
M21	**O'zbekistonning jahon xalqaro iqtisodiy hamkorligi** O'zbekiston iqtisodiyotni jadal suratlar bilan rivojlantirish maqsadida xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirib kelmoqda. Bular BMT, MDX davlatlari, Shanxay hamkorlik tashkiloti, O'rta Osiyo davlatlari, Jaxon banki,

	Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro hisob kitoblar banki, Islom tarqqiyot banki, Jaxon savdo tashkiloti (JST), Oziq-ovqat xavfsizligi xalqaro tashkilotlari kabi bilan o'zaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirib kelmoqda.
M22	**Mamlakat taraqqiyot strategiyasida iqtisodiy siyosat** O'zbekiston Respublikasi 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasi, 2026-yilgacha taraqqiyot strategiyasi asosida iqtisodiyotni rivojlantirib kelmoqda. Taraqqiyot strategiyasining diqqat markazida erkin fuqarolik jamiyatini yaratish qonun ustuvonvorligini ta'minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, manaviy taraqqiyotni ta'minlash, umumbashariy muammolarni milliy manfaatlardsan kelib chiqib yechim topish kabilar asosiy maqsad qilib belgilangan.
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S)	
	Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.
A1	"Institusional iqtisodiyot" faninign predmeti, mazmuni va tamoyillari.
A2	Institutsionalizm metodologiyasi.
A3	Institutlar va ularning jamiyat rivojlanishidagi roli.
A4	O'yinlar nazariyasi va o'zaro hamkorliklarni modellashtirish.
A5	Reja institutlari
A6	Bozor institutlari.
A7	Transaksiyalar va transaksion xarajatlarni.
A8	Transaksiyalarni tahlil qilishga nisbatan yondashuvlar.
A9	Xufiyona iqtisodiyot.
A10	Institutlarning daromad manbalari.
A11	Institutsional xarajatlari.
A12	Institutsional foyda va renabellik.
A13	Mulkchilik huquqlari nazariyasi va mulkchilik shakllari rivojlanishining evolyutsiyasi.
A14	Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida institutsional islohotlar.
A15	Shartnomalar nazariyasi va firma nazariyasi Tashkilotni amaliy tahlil qilish nazariyasi.
A16	Firmaning tashkiliy-huquqiy shaklini tahlil qilish.
A17	Zamonaviy institutsional muammolar.
A18	Ijtimoi-iqtisodiy mauammolarning institutsional yechimlari.
A19	Jahonning institutsional standartlari.
A20	Davlat institutsional tashkilot sifatida va davlatlar xillari.
A21	O'zbekiston Respublikasinig iqtisodiy siyosatida institutsional islohotlar.
A22	O'zbekistonning jahon xalqaro iqtisodiy hamkorligi.
A23	Mamlakat taraqqiyot strategiyasida iqtisodiy siyosat.

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Institutsional iqtisodiyot" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Institusional nazariyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi.
2.	Institusionalizmning metodologik asoslari va institusional tahlilda boshlang'ich nuqta masalasi.
3.	Neoinstitusional nazariyaning asosiy yo'nalishlari.
4.	Institusional iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlari.
5.	Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlarining asosiy yo'nalishlari.
6.	Institusionalizmning boshqa yo'nalishlardan farq etuvchi jihatlari
7.	«Eski» institusionalizm vakillari qarashlarining tahlili.
8.	Instiusionalizmning asosiy nazariyalari.
9.	Mulkiy va shartnomaviy munosabatlar nazariyalarning sharhi.
10.	"Eski" va "yangi" institusional maktablarning prinsipial farqlari.
11.	Neoinstitusional iqtisodiy nazariya (neoinstitusionalizm) rivojlanishining asosiy omillari.
12.	"Institut" va "norma" tushunchalarining mohiyati.
13.	Rasmiy va norasmiy normalar va ularning shakllanishi.
14.	Institusional matrisa va uning amal qilishi.
15.	Institusional o'zgarishlar va institutlarning o'zaro bog'liqligi.
16.	Bozor ishtirokchilarining o'zaro kelishuvlar bo'yicha hatti-harakatlari normasi.
17.	Rasmiy va norasmiy normalarni muvofiqlashtirishning zarurati.
18.	Tashkilotlarning institusional jarayonlarda bajaradigan funksiyalari.
19.	O'yinlar nazariyasining asosiy yo'nalishlari.
20.	Muvozanatlar turlari va ularni qidirish yo'llari.
21.	O'yinlar nazariyasi tayanch modellarining tasnifi.
22.	Kooperativ va nokooperativ nazariyalarning xususiyatlari.
23.	Ustun strategiyali muvozanatning tahlili.
24.	Nesh bo'yicha muvozanat va uning tahlili.
25.	Shtakelberg bo'yicha muvozanat va uning tahlili.
26.	Pareto bo'yicha muvozanat va uning tahlili.
27.	Iqtisodiyot konstitusiyalarining shakllanishi
28.	Buyruqbozlik iqtisodiyotining normalari.
29.	Bozor konstitusiyasi normalari.
30.	Mulkchilik huquqlarining iqtisodiy asoslari.
31.	Iqtisodiyot konstitusiyalari normalarining guruhlanishi.
32.	Mulkchilik huquqlarining tasniflanishi.
33.	O'tish iqtisodiyoti tub beqarorligining sabablari.
34.	Buyruqbozlik iqtisodiyotida utilitarizm normasi.
35.	Bozor iqtisodiyotining davriy tebranishlari.

36.	Lizing shartnomalari va ularning ahamiyati.
37.	Mulkdorlar o'rtasida huquqlarning taqsimlanishi.
38.	Kouz teoremasi va uning ahamiyati.
39.	Transaksiya xarajatlari va ularning mohiyati.
40.	Mulkchilik subyektlari bo'yicha huquqlarining taqsimlanishi.
41.	Iqtisodiy nazariyalarda ustuvor sektorlarning taqsimlanishi.
42.	Mulkchilik konsepsiyasining iqtisodiy ustunliklari.
43.	«Rekombinasiyalangan» va «chigallashib ketgan» mulkiy munosabatlar.
44.	Mulkchilik huquqlarda «daromad samarasi»ning omillari.
45.	Xufyona iqtisodiyot va uning shakllanishi.

"Institutsional iqtisodiyoti" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari faning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada iqtisodiy bilim ko'nikma hamda bilimlarni shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, faning iqtisodiy qonunlar,kategoriyalar,ijtmoiy-iqtisodiy munosabatlar,iqtisodiy tizimlar va ularni amal qilishi haqidagi muammolarni obyektiv tarzda ochib berish ko'zda tutiladi.Keltirilgan mavzular bo'yicha talabalar olib borayotgan tatqiqotlar,milliy iqtisodiyotning dolzarb muammolariga qaratlib talabalr tomonidan amaliy ishlashni talab etib bu xol ularda iqtisodiyot amaliyotida amaliy ko'nikmalarni, to'g'ri iqtisodiy fikirlashni shakillanishiga sabab bo'ladi. Bu holat **mustaqil ta'limda** nazarda tutilgan mavzular doirasida talabalar ish olib borishadi. Fan bo'yicha mustaqil ta'limda talabalar yuqorida keltirilgan mavzulardan tashqari o'z xoxishlariga ko'ra boshqa mavzudagi muammolarni ochib berish imkoniyatiga ega.Fan bo'yicha tavsiya etilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida keltirilgan.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Iqtisodiyot nazariyasining mohiyati va mazmuni, nazariy asoslarini, iqtisodiyot nazariyasining asosiy tushunchalari va kategoriyalari, rejalashtirish, tahlil etish, milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlari; makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning mohiyati; iqtisodiy jarayonlarning amal qilish xususiyatlari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Iqtisodiy qonunlarni, ilmiy tushunchalarni (kategoriyalarni), iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • Talaba iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish; iqtisodiy muammolarini hal etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar to'plash va ulardan foydalanish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

	• ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • elektron materiallar • keys-texnologiyalar • vizual, muammoli, mualliflik ma'ruzalari, ikki tomonlama tahlil, Insert, klaster, «Venna», sinkveyn va boshqalardan foydalanish
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

Asosiy adabiyotlar:

1. Berkinov B.B., Yakubov I.O., Sunnatov M.N., Institutsional iqtisodiyot: fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha. -O'quv qo'llanma. –T.:2019.- 170b.

2. Малкина М.Ю., Логинова Т.П., Лядова Е.В. Институциональная экономика: Учебное пособие. – Нижний Новгород: Нижегородский госуниверситет, 2015 – 258 с.

3. Тарушкин А. Б. Т22 Институциональная экономика. Учебное пособие. — СПб.: Питер, 2004. — 368 с. — (Серия «Учебное пособие»).

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 29 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

5. Uzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. - T.: Uzbekiston. 2011. – 48b.

6. А.Н.Елиссев, И.Е.Шульга Институциональный анализ интеллектуальной собственности: Учеб, пособие, - М.: ИНФРА - М, 2005. – 92 с.

7. В.Л.Тамбовцев Экономическая теория институциональных изменений. - М.: ТЕИС, 2005. - 542 с.

Internet saytlari

	1. www.economy.gov.ru 2. www.uza.uz 3. uzland.uz 4.www.stability.uz 5.http://martit.ru/images/stories/umk/inst-economy-book.pdf 6.http://www.unn.ru/books/met_files/inst_economy.pdf 7. http://pmkinfo.tversu.ru/pers/drozdov/ie.pdf 8.http://institutional.narod.ru/ 9.http://www.litres.ru/marina-odincova/institucionalnaya-ekonomika/ 10.http://www.nnre.ru/delovaja_literatura/institucionalnaja_yekonomika/index.php 11.http://nashaucheba.ru 12.http://dfiles.ru/files/v2qv8w2qb 13.http://www.ekonomika-st.ru/ekonomika/inst-ekonomika/inst-ekonomika-1.html
	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
	Fan/modul uchun mas'ullar: **1.** A.N.Nizamov – SamDU "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi mudiri, dotsent, i.f.n.
	Taqrizchilar: 1. Bozorov B.U.- "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi dotsenti (ichki) 2. Sultonov Sh.A. – SamISI, i.f.n. (tashqi)

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Arabov N.U.

Kafedra mudiri: **A.N.Nizamov**

Institut direktori: **Sh.D. Djurakulov**

Sh. Rashidov nomidagi
SamDU O'quv ishlari bo'yicha
1-prorektor: **A.S. Soleyev**

Sh.Rashidov nomidagi SamDU Inson resurslarini boshqarish fakulteti Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi dotsentlar,ma'sul B.M.Bobokulov,Sh.S.Sharifov va ass.J.K.Boymurodovlar tomonidan tuzilgan "Iqtisodiy nazariya" fan dasturiga

TAQRIZ

Ushbu fan dasturi o'quv rejaga mos ravishda tuzilgan bo'lib unda qaysi mavzularni auditoriyada va qaysi mavzularini mustaqil ta'lim shaklida o'tish batafsil yoritib berilgan.Ma'ro'za va amaliy darslarda iqtisodiy nazariyaning kelib chiqish tarixi fanining predmeti va vazifalari o'rganish usullari batafsil o'rganib chiqish lozimligi ko'rsatilgan.

Talabalarga iqtisodiyot nazariyasining mazmuni-mohiyati,vujudga kelishi va rivojlanishi bosqichlari,iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini,iqtisodiy qonunlar va tamoyillarni o'rganish jarayonlarning amaliy xolati,iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini,xududlarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish jarayoni hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini xosil qilish o'rganiladi.

O'qituvchining dars jarayonidagi asosiy vazifasi talabaning o'qish jarayonidagi o'zlashtirish qobiliyatini oshirish,talabada innovatsiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish,zamonaviy axborot-kommunikatsiyalar tizimidan keng foydalanish faoliyatini o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga amaliy yordam beradi.

"Iqtisodiy nazariya" fanini o'rganishda qo'llaniladigan ilg'or ta'lim texnologiyalarni va metodlarini qo'llagan holda, o'quv jarayonlarini tokomillashtirish nazarda tutilgan.Talabaning ushbu fanni mukammal o'rganib olish uchun qo'yilgan talablar ushbu dasturda o'z aksini topgan.

Fanni o'zlashtirish jarayonidagi zarur bo'lgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ham keltirilgan.Ayrim mavzularni o'rganish jarayonida kafedra a'zolarining metodik, me'yoriy hujjatlari va qo'llanmalari foydalanish uchun tavsiya etilgan.SHu bilan birga,mamlakatimizda ishlab chiqarilgan ohirgi qonun-qoidalar, axborot manbalari (saytlar) tavsiya etilgan.

Xulosa qilib aytganda, "Iqtisodiy nazariya"fanidan tuzilgan fan dasturi kafedrada muhokama qilingan ichki taqriz mavjud,fakultetning o'quv uslubiy kengashida muhokama qilinib o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etiladi.

SamDU "Iqtisodiyot" kafedrasi
dotsenti,i.f.n. T.S.Sharipov

DAVONI TASDIQLAYMAN
SamDU
KADRLAR BO'LIMI B'SHLIG'I

Samarkand davlat universitetiinson resurslarini boshkarishfakulteti oliy ta'lim muassasalari 5230100"iqtisodiyot"(tarmoqlar vasoxalar bo'yicha), 5A 230101 "iqtisodiy nazariya"yo'nalishi ta'lim oluvchi magistrlar uchuntayorlangan "instutsional nazariyalar"fanidan o'quv qo'llanmasiga

TAQRIZ

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy xayotining barcha soxalarini o'z ichiga qamrab olmoqda. Mulkchilik, ishlab chiqarish va taqsimot munosabatlarini takomillashtirish bevosita rasmiy qoidalar, milliyqadriyatlar, urf -odatlar va boshka norasmiy normalarni o'z ichiga qamrab oluvchi institutlar bilan bog'liqdir.

Institutsional muhitni faolashtirish, iqtisodiyni rivojlantirish qonuniyatlarini bilish, uni modernizatsiya qilish yo'llarini tanlash va xavf-xatar oldini olish uning nazariyasini bilishini taqoza etadi.

Institutsional nazariya – bu iqtisodiyot va xo'jalik amaliyotini o'zaro bog'liqligini nazariy jixatdan o'rganuvchi zamonaviy iqtisodiy fikrlarining ilmiy yo'nalishidir. SHu nuqtai nazardan "Institutsional nazariya"fanining "iqtisodiy nazariya" mutxasissiligi yo'nalishida magistrlar bilimini shaklantirishda muhim ahamiyatni kasb etadi.

Umuman olganda dotsent A.N.Nizomov tomonidan Oliy ta'lim muassaslari 5230100 "iqtisodiyot"(tarmoqlar va soxalar bo'yicha), 5A 230101 "iqtisodiy nazariya" yo'nalishi ta'lim oluvchi magistrlar uchun tayorlangan "instutsional nazariyalar"fanidan tayyorlangan o'quv qo'llanmani nashrga tavsiya etiladi.

Samarqand davlat universiteti
inson resurslarini boshqarish
fakulteti dekani, i.f.d., prof. **N.U.Arabov**